



PEDAGOGIK METODLARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

¹Xusainova Dilrabo Ibragimjanovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.
3-darajali yurist. Tel +998932559924. @Xusainova_D,

²Nuraliyeva Nodira Aminjonovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
kanselyariya va arxiv bo'limi mudiri. Tel. 91 675 38 80.
nuraliyeva.n@internet.ru.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7413061>

ARTICLE INFO

Received: 20th November 2022

Accepted: 28th November 2022

Online: 30th November 2022

KEY WORDS

Metod, ta'lim metodlari, tadqiqot ta'lim vositasi, didaktik vositalar, didaktik o'yinlar, mashq va o'rgatish metodlari, faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlari, metodlar tizimi, hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza.

Metod so'zi yunonchadan tarjima qilinganda tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli degan ma'noni anglatadi. Metod umumiy ma'noda maqsadga erishish uchun tanlangan usul, ma'lum shaklda tartibga solingan faoliyat hisoblanadi. Metodlarning asosiy mazmun-mohiyatini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar hosil qiladi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyat-e'tibori jihatidan metod vazifasini bajaradi. Metod, o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi.

Ta'lim metodlariga ta'rif beradigan bo'lsak, o'rganilayotgan o'quv materialini o'zlashtirishga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati va o'quvchilarning o'quv-bilish jarayonidagi harakatlarini tashkil etish usullari yig'indisini tushunish

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'limning metodlari va vositalari xususida so'z yuritilib, metodlarning amaliy ahamiyati, turlari, qo'llanish usullari va vositalari haqida ma'lumotlar berilgan. Metodlarning amaliy ahamiyati haqida atroflicha fikr bayon qilingan.

mumkin. Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida o'z aksini topadi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.

Metodlarning amaliy ahamiyati haqida atroflicha fikr bayon qilish mumkin. Ularning xilma-xil turlari va shakllarining mavjudligi ta'lim jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim [metodlari tizimida](#) og'zaki bayon qilish metodlari muhim o'rin egallaydi. [Og'zaki mashqlardan](#) ta'lim jarayonida keng



foydalaniladi. Ular o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirishning xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos. Xususan, xorijiy tillarni o'rgatishda bunday mashqlar yaxshi samara beradi.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li orqali ixcham, lo'nda va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida qo'llashi, fikrni ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashishiga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. Buning uchun o'qituvchi har bir darsda ta'lim maqsadini aniq belgilab olishi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborini qaratishi zarur. Hikoya o'quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni hosil qilishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta'lim metodlari (xususan, namoyish yoki muammoli bayon etish va hokazolar) bilan birga solishtirganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Suhbat – savol va javob ko'rinishidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, hatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalanganligi aytiladi. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p vazifalarni (aqliy [fikrlash](#), hozirjavoblik, muloqot madaniyati va

boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi, o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilishga, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi. Suhbat faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodidir. Binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi kerak bo'ladi. Shu sababli suhbatda bilim olish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan [qoidalar](#), tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga kelishlariga asoslanadi. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlili asosida umumiy xulosaga kelish birlamchi hisoblanadi.

Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashhislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbat o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi zarur bo'lgan ishlar mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko'rishdan iborat. Bunday suhbatlar o'quvchilarning o'quv salohiyatini aniqlash, loyihalashtirish ishlarini tashkil etish



hamda yangi bilimlarni o'zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi.

Yakuniy suhbat o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Qisqa bayonli suhbat – o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi hamda ularning yangi o'quv metodikasini o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o'qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so'nggida qo'llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo'q» tarzidagi javoblarni olish emas, [aksincha](#), o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilishi zarur. Demak, evristik suhbat jarayonida o'quvchilar bilimlarni o'zlarining tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o'zlashtira oladilar.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdan iborat. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalanish mumkin. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin elementlari namoyon bo'ladi va shu asosda materialning mohiyati yoritib beriladi. Tushuntirishda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishi yaxshi samara beradi.

Ma'ruza – katta hajmdagi o'quv

materialini og'zaki bayon qilish metodi hisoblanib, uning o'ziga xos xususiyatlari qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimlilikidan iborat. Ma'ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar hosil qiladi. Shu bois ma'ruzadan kata yoshlilarga ta'lim berishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan yuzaga keladi va bir vaqtda o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspekt qilish)ga o'rgata boradi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi. Ta'limning globallasuvi ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan bog'lanadi. O'yinlar o'quvchilarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda



o'quvchilarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.

Qayd etilganidek, ushbu metodlar o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatga keladi va kutilgan natijani beradi.

References:

1. B.X.Xodjayev «Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti». Toshkent - 2017, «Sano-standart» nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi» T., 2000 y. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev «Pedagogika» T., «Talqin» 2008 y. R. Mavlonova «Pedagogika» T., «O'qituvchi» 2004 y.
3. To'raqulov X.A. «Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari» . Toshkent: Fan, 2006.
4. Xoshimov K. va boshqalar. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1995.